

INKLYUZIV TA'LIMDA TIZIMIDA AUTIZM BOLALARNI KOMMUNIKATIV MULOQOTINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abidova Nilufar Zokirovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti professori, DSc

Axmedova Saida Jamoliddin qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi 2-bosqich magistr talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tizimida autizm spektri buzilishiga ega bolalarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy ta'lim strategiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim muhitida autizmli bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar, vizual qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyalari hamda kognitiv rivojlanishni rag'batlantiruvchi metodlarning samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, pedagoglar, psixologlar va otalar o'rtasidagi hamkorlikning autizmli bolalarning ijtimoiy moslashuvi va bilish jarayonlariga ta'siri yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim amaliyotini takomillashtirish, autizmli bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash hamda ularning ijtimoiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, autizm spektr buzilishi, kommunikativ muloqot, ijtimoiy moslashuv, ta'lim muhiti, kognitiv rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются современные образовательные стратегии, направленные на обеспечение социально-когнитивного развития детей с расстройствами аутистического спектра в инклюзивной системе образования. Изучается эффективность инновационных педагогических подходов, визуальной поддержки, технологий развития социальных навыков и методов, стимулирующих когнитивное развитие, используемых в инклюзивной образовательной среде с учетом индивидуальных потребностей детей с аутизмом. Также подчеркивается влияние сотрудничества между педагогами, психологами и родителями на социальную адаптацию и когнитивные процессы детей с аутизмом. Результаты исследования служат для совершенствования практики инклюзивного образования, обеспечения активного участия детей с аутизмом в образовательном процессе и развития их социально-интеллектуального потенциала.

Ключевые слова: асстройство аутистического спектра коммуникативное взаимодействие, социальная адаптация, образовательная среда, когнитивное развитие

Abstract: *This article analyzes modern educational strategies aimed at ensuring the social and cognitive development of children with autism spectrum disorders in the inclusive education system from a scientific, theoretical and practical perspective. The effectiveness of innovative pedagogical approaches, visual support, social skills development technologies, and cognitive development stimulating methods used in an inclusive education environment, taking into account the individual needs of children with autism, is studied. The impact of cooperation between educators, psychologists, and parents on the social adaptation and cognitive processes of children with autism is also highlighted. The results of the study serve to improve inclusive education practices, ensure the active participation of children with autism in the educational process, and develop their social and intellectual potential.*

Keywords: *Inclusive education, autism spectrum disorder (ASD)— communicative interaction communication, adaptation, educational environment, cognitive development.*

KIRISH.

Bugungi kunda butun dunyoda inklyuziv ta'lim tizimi dolzarb sohalardan biriga aylanmoqda. Dunyo bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish, ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi – inklyuziv ta'lim o'zi nima? Inklyuziv ta'lim - barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda eng huquqlilikni ta'minlashdir. Inklyuziv- inglizcha so'z bo'lib, inclusive - qo'shish, birlashtirish degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi. Inklyuziv ta'lim- o'quvchilarning imkoniyatlari, individual psixologik,jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.

Har bir bola ta'lim olish huquqiga ega. Bu alohida ehtiyojli bolalarga ham tegishlidir.Birlashgan Millatlar tashkilotining nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi inklyuziv ta'lim insonning asosiy huquqi - har bir alohida ehtiyojli bola uchun ta'lim ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayni sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi mo'ljallangan sa'y-harakatlar uchun huquqiy asos bo'ldi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish .Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini, mehnatga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ilm-fan, texnika,

san'at va sportga jalb etish borasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'i nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish esa inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning bosh maqsadi bo'lishi hamda buning ustuvor yo'nalishlari qat'iy belgilab olinishi lozim.

Inklyuziv ta'lim autizmli bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularni jamiyatga integratsiya qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga sharoit yaratishga qaratilgan. Bu jarayonda kommunikativ muloqot va ijtimoiy moslashuv yetakchi omillar hisoblanadi, chunki autizmli bolalarda aynan ushbu sohalarida eng katta qiyinchiliklar kuzatiladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida maktabga qabul gilingan autistik spektr buzilishiga ega bolalar rivojlanish darajalari, o'quv faoliyatiga tayyorgarligi, ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalari, sensor qabul qilish xususiyatlari hamda o'zini-o'zi boshqarish darajasi bilan o'zaro sezilarli farqlanadi. Ushbu individual farqlarni tan olish va qabul qilish ta'lim jarayonini "moslashtirish" emas, balki bolaning ehtiyojlariga mos qulay ta'lim muhiti yaratish zaruratini belgilaydi. Shu bois, autistik spektr buzilishiga ega bolalar uchun ta'lim jarayonini tashkil etishda differensial va moslashuvchan ta'lim marshrutlarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bolani inklyuziv muhitga moslashtirish jarayonini majburlash emas, balki xavfsiz, erkin, mustaqil va hissiy jihatdan qulay muhit orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish; bolaning ijtimoiy aloqalarni o'z sur'ati va qulay shaklida shakllantirishiga imkon berish zarur. Xulq-atvor bolaning ehtiyojlarini tushunish va funksional muloqotni rivojlantirishga yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlovchi mashg'ulotlarni tashkil etish kerak. Inklyuziv ta'lim muhitida autizmli bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun:

- Tengdoshlar bilan hamkorlikni tashkil etish-juftlikda ishlash, kichik guruh mashg'ulotlari;

- Ijtimoiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'rgatish -pozitiv muhit yaratish (qabul qilish, tushunish va qo'llab-quvvatlash)- rag'batlantirish va mustahkamlash;

- Individual yondashuv-har bir bolaning ehtiyoj va imkoniyatini hisobga olish;

- Pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligining ahamiyati-inklyuziv ta'limda muvaffaqiyatning asosiy sharti — ko'p tomonlama hamkorlikdir:

- Pedagog — ta'lim muhitini moslashtiradi;

- Maxsus pedagog va psixolog mutaxassislar — ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi shu bilan birga kognitiv jarayonlarni, xulq-atvorini ustida korreksion pedagogik ishlarni olib boradi;

- Ota-onalar va pedagoglarning faol ishtiroki inklyuziv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Uyda va maktabda bir xil metodik yondashuvlarni go'llash, shuningdek bolalarning hissiy rivojlanishi bo'yicha kuzatuvlar va tavsiyalarni muntazam ravishda o'zaro almashish inklyuziv ta'lim sharoitida qo'llab-quvvatlash strategiyalariga zamonaviy yondashuvlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

1.Hissiy-irodaviy sohada autizmli bolalar boshqa insonlar bilan hissiy aloqa o'rnatishda qiyinchilikka duch keladilar. Ular ko'pincha ko'z bilan kontaktga kam kirishadi, emotsional

javoblar yetarli darajada ifodalanmaydi yoki noadekvat bo'ladi. Kommunikativ rivojlanishda nutqning kech rivojlanishi yoki funksional nutqning yetishmasligi kuzatiladi. Ba'zi bolalarda nutq umuman shakllanmagan bo'lsa, boshqalarida echolaliya, stereotipik iboralar, nutqning kommunikativ vazifani bajarmasligi aniqlanadi. Nutqni tushunish bilan faol qo'llash o'rtasida katta tafovut mavjud bo'lishi mumkin.

2. Bilish faoliyatida esa tafakkurning rigidligi, qiziqishlarning tor doirada cheklanishi, bir xil harakatlarni takrorlashga moyillik, yangi vaziyatlarga moslashishda qiyinchiliklar namoyon bo'ladi. Autizmli bolalar ko'proq ko'rgazmali-obrazli fikrlashga tayanadilar, verbal-mantiqiy tafakkur esa sust rivojlangan bo'lishi mumkin.

3. Autizm spektr buzilishiga ega bolalarni inklyuziv ta'lim muhitida qo'llab-quvvatlash kompleks, tizimli va individual yordashuvni talab etadi. Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

4. Nutqiy va alternativ kommunikatsiya vositalaridan (piktogrammalar, PECS tizimi, vizual jadval) foydalanish autizmli bolalarning mulogot ehtiyojlarini gondirishga yordam beradi. Logoped va pedagoglarning hamkorligi bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

5. Ijtimoiy moslashuv va xulq-atvorni korreksiyalash Ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish, ijtimoiy hikoyalar, qoidalarni vizual ko'rinishda taqdim etish orqali bolalarning maktab muhitiga moslashuvi yengillashtiriladi. Ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash usullari keng qo'llaniladi.

6. Bilish faoliyatini rivojlantirish Topshiriqlarni kichik bosqichlarga bo'lish, ko'rgazmalilikni kuchaytirish, individual tempni hisobga olish orqali o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligi oshiriladi.

7. Hissiy sohani qollab-quvvatlashning asosiy strategiyalari "Bolalarga turli emotsiyalarni (xursandlik, g'azab, go'rquv, hayrat) tanib olish va nomlashni o'rgatish;

8. Emotional yuz ifodalarini va tana tilini tushuntirib, vizual ko'rgazmalar (kartochkalar, rasmlar) yordamida mashqlar o'tkazish".

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul gilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda ta'lim islohotlari doirasida har bir bolaning rivojlanish darajasi, kognitiv imkoniyatlari, kommunikativ va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilanmogda. Individual ta'lim rejasi (ITR) umumta'lim muassasasi pedagoglari, maktab psixologi, logoped, defektolog hamda ota-onalar hamkorligida tuziladi va o'quvchining rivojlanish dinamikasiga mos ravishda bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv O'zbekiston maktablarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli jalb etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa.

Inklyuziv ta'lim sharoitida autistik spektr buzilishiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash uzluksiz, tizimli va individual yondashuvga asoslangan bo'lishi lozim. To'g'ri tanlangan pedagogik strategiyalar, zamonaviy texnologiyalar va ofa-onalar bilan samarali hamkorlik autizmli bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, ijtimoiylashuvi jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar inklyuziv ta'limning insonparvarlik, tenglik va imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan asosiy tamoyillarini to'laqonli ro'yobga

chiqarishga imkon beradi. Inklyuziv ta'lim tizimida autizimli bolalarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlash kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim strategiyalaridan samarali foydalanish, individual ehtiyojlarni hisobga olish hamda mutaxassislar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali autizimli bolalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirish mumkin. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvi va mustagil hayot kechirishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Домишкевич С. А., Калмыкова З. И. Коррекционно-развивающая работа с детьми с аутизмом. - М., 2010. - С.156.
2. Kanner L. Autistic disturbances of affective contact. - Nervous Child, 1943. Vol.2.P.217.
3. Никольская О. С. Особенности психического развития детей с аутизмом. М.:Просвещение, 2000. - Р. 184.
4. Schopler R., Mesibov G. Learning and Cognition in Autism. New York: Plenum Press, 1995. - 238 s.
5. <https://lex.uz/docs/-5013007> (murojbat sanasi 19.01.2026).